

O‘ZBEKISTONDA IQTISODIY ISLOHOTLAR KONTEKSTIDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH INSTRUMENTLARINING SAMARADORLIGI

Boymirzayeva Madina

talaba, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti

Omonova Navruzoy

*o‘qituvchi, “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti “Ekologiya huquqi”
kafedrası stajer-o‘qituvchisi*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida yashil moliyalashtirish instrumentlarining roli va samaradorligi tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda barqaror taraqqiyotga erishish, atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytirish hamda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Shu munosabat bilan yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik mexanizmlari kabi moliyaviy instrumentlarning amaldagi holati va natijadorligi o‘rganiladi. Maqolada ushbu instrumentlardan foydalanishning iqtisodiy samaralari, ularni tatbiq etishda uchrayotgan institutsional va huquqiy muammolar, shuningdek, xalqaro tajriba asosida takomillashtirish bo‘yicha takliflar keltiriladi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonini jadallashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni oshirishda muhim hisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *yashil moliyalashtirish, yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik, yashil obligatsiyalar, iqlim moliyasi, milliy taksonomiya, shaffoflik, energiya samaradorligi, iqtisodiy islohotlar.*

EFFECTIVENESS OF GREEN FINANCING INSTRUMENTS IN THE CONTEXT OF ECONOMIC REFORMS IN UZBEKISTAN

Abstract. *This article analyzes the role and effectiveness of green financing instruments in the process of economic reforms implemented in the Republic of Uzbekistan. In recent years, achieving sustainable development, reducing negative environmental impacts, and introducing energy-efficient technologies have become among the priority directions of state policy. In this regard, the study examines the current state and efficiency of financial instruments such as green bonds, green loans, support programs for renewable energy projects, and cooperation mechanisms with international financial institutions. The article*

also evaluates the economic benefits of using these instruments, identifies institutional and legal challenges in their implementation, and presents proposals for improvement based on international experience. The research findings are significant for accelerating Uzbekistan's transition to a green economy and enhancing financial sustainability.

Keywords: green financing, green economy, renewable energy, environmental sustainability, green bonds, climate finance, national taxonomy, transparency, energy efficiency, economic reforms.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИНСТРУМЕНТОВ ЗЕЛЁНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ В КОНТЕКСТЕ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье анализируются роль и эффективность инструментов зелёного финансирования в процессе реализации экономических реформ в Республике Узбекистан. В последние годы достижение устойчивого развития, снижение негативного воздействия на окружающую среду и внедрение энергосберегающих технологий стали одним из приоритетных направлений государственной политики. В связи с этим изучается текущее состояние и результативность таких финансовых инструментов, как зелёные облигации, зелёные кредиты, программы поддержки проектов в области возобновляемой энергетики, а также механизмы сотрудничества с международными финансовыми институтами. В статье рассматриваются экономические эффекты использования данных инструментов, выявляются институциональные и правовые проблемы их внедрения, а также предлагаются меры по совершенствованию с учётом международного опыта. Результаты исследования имеют важное значение для ускорения перехода Узбекистана к зелёной экономике и повышения финансовой устойчивости.

Ключевые слова: зелёное финансирование, зелёная экономика, возобновляемая энергия, экологическая устойчивость, зелёные облигации, климатическое финансирование, национальная таксономия, прозрачность, энергоэффективность, экономические реформы.

Kirish. So‘nggi yillar ichida O‘zbekiston hududida kuzatilgan keskin iqlim o‘zgarishlari ekologik muvozanatning buzilishiga hamda tabiiy resurslarning izchil kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Havo haroratining sezilarli darajada oshishi, suv resurslarining qisqarishi, yerlarning degradatsiyasi va biologik xilma-xillikning pasayishi kabi jarayonlar mamlakatning iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir etayotgan omillar hisoblanadi. Ushbu ekologik cheklovlar iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida samaradorlikni

susaytirib, resurslardan foydalanish xarajatlarining ortishiga va iqtisodiy barqarorlikning zaiflashishiga olib kelmoqda. Shu nuqtayi nazardan, iqlim xavflarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan yashil iqtisodiyot konsepsiyalari mamlakatimiz uchun maqbul yechim sifatida ko'rilmogda. Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliyaviy mexanizmlarning, xususan, yashil moliyalashtirish instrumentlarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur instrumentlar ekologik yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, xususiy sektorni rag'batlantirish, xalqaro moliyaviy resurslarni jalb etish hamda iqtisodiy transformatsiyani tezlashtirishga xizmat qiladi. Shu bois O'zbekistonda yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligini baholash va ularning iqtisodiy islohotlar kontekstidagi o'rnini aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur jarayonni institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 2019–2030 yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" (PQ-4477) qabul qilingan bo'lib, unda transport xarajatlarini qisqartirish va transport sohasining samarali faoliyatini ta'minlashga qaratilgan yagona kompleks rivojlanish siyosatini shakllantirish, shaharni uzoq muddatli rivojlantirish rejalari va ekologik xavfsizlik choralariga muvofiq "yashil" transportni rivojlantirish [1] kabi aniq maqsad belgilangan. Ushbu strategiya yashil loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini, jumladan yashil kreditlar va investitsiyalarni keng joriy etish zaruratini asoslab beradi, shuningdek, O'zbekistonda yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligini baholash va ularni iqtisodiy islohotlar kontekstida tadqiq etish uchun huquqiy poydevor yaratadi.

Asosiy qism. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilgan yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligi, bevosita mamlakatning izchil rivojlangan huquqiy va institutsional bazasi bilan belgilanadi. Bu samaradorlik nafaqat sarmoyalarni jalb qilish tezligi, balki ularning ekologik-iqtisodiy maqsadlarga muvofiq ravishda, shaffoflik asosida yo'naltirilishi bilan o'lchanadi.

1. Strategik huquqiy zamin va instrumentlarga yo'nalish

Yashil moliyalashtirishning huquqiy asosi o'z ildizlarini 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonundan oladi. Ushbu Qonun yashil sarmoyalarni qo'llab-quvvatlash uchun zarur ekologik majburiyatlar va xavfsizlik prinsiplarini belgilab, barcha iqtisodiy faoliyatni atrof-muhit me'yorlariga bo'ysundiradi. Qonunning 3-moddasida [2] iqtisodiy faoliyatni atrof-muhit me'yorlariga bo'ysundirish majburiyigi belgilangan. Ushbu norma shuni anglatadiki, barcha korxona va tashkilotlar ekologik talablarni inobatga olgan holda faoliyat yuritishi kerak. Ya'ni, moliyaviy resurslarni jalb qilishda ham, loyiha ekologik xavfsizlikni ta'minlamasa, u

moliyalashtirilishi mumkin emas. Shu bilan qonunda belgilangan majburiyatlar investorlar va davlat organlari uchun me'yoriy asos sifatida xizmat qiladi, sarmoyaning ekologik maqsadga muvofiqligi nazorat qilinadi. Shu fundament ustiga 2019-yil 4-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (PQ-4477) bilan strategik yo'nalish mustahkamlandi. Strategiya yashil instrumentlarning mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy maqsadlariga erishishdagi siyosiy ustuvorligini belgiladi. Mazkur Qarorning 5-bandida [3] yashil moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish va ekologik loyihalarni moliyalashtirishdagi davlat rag'batlari ko'rsatilgan. Bu norma moliyaviy va investitsion resurslarning maqsadli va shaffof tarzda yo'naltirilishini kafolatlaydi. Shu tarzda, qaror investitsiyalarning ekologik barqarorligini oshirish va yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish imkonini beradi. Moliyaviy instrumentlarning asosiy yo'nalishini aniqlashda 2020-yilda e'lon qilingan "Yashil energiya" Konsepsiyasi [4] hal qiluvchi rol o'ynadi. Konsepsiya Qayta Tiklanuvchi Energiya loyihalarini eng yuqori investitsion ustuvorlik sifatida belgilab, yashil obligatsiyalar, iqlim kreditlari va lizing kabi instrumentlarning investitsion samaradorligini oshirish imkonini berdi. Ushbu yo'nalish 2023-yil 16-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaror bilan yanada kuchaytirildi, 15-bandiga [5] binoan 2023-yil 1-apreldan boshlab respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatli (umumiy quvvati 50 kVt gacha) quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) amalga oshirilsin. 2023-yilda 37 ming aholi xonadonlarida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish rejasi muvofiq tasdiqlansin, zero hujjat yashil instrumentlar bilan moliyalashtiriladigan loyihalarning soni va hajmini oshirish uchun aniq huquqiy rag'batlar va qo'shimcha kafolatlarni belgiladi.

2. Boshqaruv va institutsional muvofiqlashtirish orqali samaradorlikning oshishi

Yashil moliyalashtirish instrumentlarining amaliy samaradorligini ta'minlash uchun markazlashgan boshqaruv mexanizmi joriy etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 514-sonli 2023-yil 29-sentabrdagi "Yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonini boshqarish tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorining 3-bandida [6] "yashil" iqtisodiyot masalalarini muvofiqlashtirish vazifasi yuklangan rahbar o'rinbosarlari tomonidan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

respublika ijro etuvchi hokimiyat organi yoki xo'jalik birlashmasi faoliyatiga oid "yashil" iqtisodiyot masalalarini muvofiqlashtirish;

tegishli soha va ishlab chiqarish tarmoqlarining tabiiy resurslardan barqaror va samarali foydalanish tamoyillariga rioya etishini ta'minlash;

iqtisodiyot sohasining tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqarorligini ta’minlash choralari ko‘rish;

iqtisodiyot tarmoqlarining “yashil” va kam uglerodli rivojlanishga qaratilgan chora-tadbirlarini amalga oshirish, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samarador texnologiyalarni joriy qilish;

“yashil” innovatsiyalarni joriy etish va ushbu sohaga investitsiyalarni jalb qilish choralari ko‘rish;

tarmoq tashkilotlarining barqaror ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan rejalarini amalga oshirish va rivojlantirish istiqbollari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

energiya va resurs samaradorligini oshirish hamda kam chiqindili mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektori o‘rtasida integratsiyani ta’minlash;

uzoq muddatli istiqbolda barqaror ish o‘rinlarini yaratish uchun “yashil” iqtisodiyotga o‘tish davrida xodimlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, shuningdek, ularning “yashil” o‘sish bo‘yicha salohiyatini oshirish va inson kapitalini rivojlantirishdan iborat. Ushbu hujjatlar yashil o‘sish maqsadlari bilan iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanish strategiyalarini idoralararo darajada muvofiqlashtiruvchi tizim yaratdi. Natijada, yashil instrumentlar orqali jalb qilingan moliyaviy resurslar turli byurokratik to‘siqlarsiz, aniq belgilangan milliy ustuvor loyihalarga tezkor va funksional samaradorlik bilan yo‘naltirilmoqda. Institutsional infratuzilmaning mustahkamlanishi, investitsiya loyihalarini ko‘rib chiqish jarayonini tezlashtirib, investorlar uchun xatarlarni kamaytirdi.

3. Shaffoflik va hisobdorlik orqali kapitalning integratsiyasi

Yashil instrumentlarning samaradorligi faqat ichki talablar bilan emas, balki ularning xalqaro kapital bozorlariga integratsiya darajasi bilan ham o‘lchanadi. Bu boradagi asosiy qadam 2023-yil 25-oktabrda qabul qilingan “Milliy “Yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qaror [7] bo‘ldi. Taksonomiya yashil obligatsiyalar kabi instrumentlarning moliyaviy shaffofligini ta’minlab, qaysi loyihalar rasmiy “yashil” deb tan olinishi uchun aniq, ilmiy asoslangan va xalqaro me‘yorlarga mos mezonlarni belgiladi. Bu chora “yashil yuvish” (greenwashing) xavfini kamaytirib, yashil instrumentlarga bo‘lgan xalqaro investor ishonchining oshishiga va jalb qilinayotgan sarmoyaning maqsadli samaradorligini rasman tasdiqlashga xizmat qildi. Nihoyat, 2024-yil 5-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror [8], moliyalashtirilgan loyihalarining aniq ekologik ta’sirini (masalan, karbonat angidrid emissiyasining kamayishi) shaffof tarzda o‘lchash va investorlarga yetkazishni ta’minladi. Shu mexanizm nafaqat ichki hisobdorlikni

ta'minlaydi, balki yirik xalqaro ESG fondlari va banklari bilan hamkorlikni mustahkamlab, yashil sarmoyaning miqdoriy va sifat jihatidan barqaror oqimini kafolatlaydi.

O'zbekiston sharoitida yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligini oshirish va ularni xalqaro bozorlar bilan integratsiya qilish uchun bir qator chora-tadbirlar tavsiya etiladi. Birinchidan, yashil moliyalashtirishning huquqiy bazasini yanada mustahkamlash maqsadida mavjud qonun va qarorlarning amaliy ijrosini doimiy monitoring qilish, investorlarga aniq va shaffof mexanizmlar orqali moliyaviy rag'batlarni taqdim etish muhim. Shu bilan birga, xalqaro tajribada, masalan, Yevropa Ittifoqi va Xitoyda, yashil obligatsiyalar va iqlim kreditlari uchun standartlashtirilgan taksonomiyalar orqali loyihalarning ekologik mezonlari aniqlanadi. O'zbekiston ham shunga o'xshash milliy va xalqaro standartlarni birlashtirib, investorlar uchun ishonchli platformani yaratishi mumkin.

Ikkinchidan, institutsional mexanizmlarni yanada samarali qilish lozim. Xalqaro tajribada, masalan, Germaniya va Shvetsiyada yashil moliyalashtirish loyihalari uchun alohida boshqaruv markazlari, ekspert guruhi va monitoring tizimlari mavjud bo'lib, bu loyihalarning tezkor moliyalashtirilishi va ekologik samaradorligini ta'minlaydi. O'zbekiston sharoitida bu tajriba asosida, tarmoqaro muvofiqlashtirish, resurslar samaradorligi va investorlarni qo'llab-quvvatlash tizimi yanada kuchaytirilishi mumkin.

Uchinchidan, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish zarur. Yashil moliyalashtirilgan loyihalarning ekologik natijalari — karbon emissiyasining kamayishi, energiya tejallishi yoki chiqindilarni kamaytirish kabi ko'rsatkichlar — muntazam ravishda ochiq ma'lumot sifatida taqdim etilishi lozim. Xalqaro tajribada bu ESG (Environmental, Social, Governance) standartlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston ham shaffoflik mexanizmlarini mustahkamlash, loyiha natijalarini auditorlik orqali tasdiqlash va xalqaro ESG fondlari bilan hamkorlikni kengaytirish imkoniyatiga ega.

To'rtinchidan, yashil innovatsiyalarni rivojlantirish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish dasturlarini kengaytirish tavsiya etiladi. Misol uchun, Yevropa va Janubiy Koreya tajribasida aholiga kichik quvvatli quyosh panellari uchun kreditlar va soliq imtiyozlari beriladi, bu esa hududlarda yashil energiya iste'molini tezlashtiradi. O'zbekiston ham "Quyoshli xonadon" dasturini yanada kengaytirib, aholining kichik quvvatli quyosh panellariga bo'lgan talabini rag'batlantirishi mumkin.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasida yashil moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligi ularning huquqiy asoslari, institutsional tizimi va shaffoflik mexanizmlari bilan bevosita bog'liq. 1992-yildan boshlab qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, 2019-yilda tasdiqlangan yashil iqtisodiyot strategiyasi, shuningdek, 2023–2024 yillarda qabul qilingan qarorlar yashil moliyalashtirishning huquqiy, moliyaviy va ekologik samaradorligini ta'minlovchi asosiy normalarni tashkil qiladi. Xalqaro tajriba

ko‘rsatadiki, yashil moliyalashtirish samaradorligi uchun huquqiy barqarorlik, institutsional muvofiqlik va shaffoflik birlashtirilgan holda ishlashi muhimdir. Shu nuqtai nazardan, O‘zbekiston mamlakatida yashil moliyalashtirishning rivojlanishi faqat sarmoyalarni jalb qilish bilan cheklanmay, balki ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga muvofiq bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, mavjud dasturlarni kengaytirish, xalqaro ESG standartlari bilan integratsiya qilish, shaffof monitoring tizimlarini mustahkamlash va aholiga kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy qilish orqali O‘zbekiston yashil moliyalashtirish instrumentlarini samarali va barqaror tarzda rivojlantira oladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining kam uglerodli rivojlanishi va yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi - <https://lex.uz/docs/-4539502>
2. Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida - <https://lex.uz/ru/docs/-107115?ONDATE2=01.01.2024&action=compare>
3. O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida - <https://lex.uz/docs/-4539502>
4. “Yashil energiya” Konsepsiyasi
5. 2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoyvchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida - <https://lex.uz/uz/docs/-6385716>
6. <https://lex.uz/ru/docs/-6622631>
7. Milliy “Yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida - <https://lex.uz/uz/docs/-6644013>
8. O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida - <https://lex.uz/uz/docs/-7245895>